ISSN 2181-7839

XALQ TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

Muassis:
O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi

PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

2026

5-son
(Sentabr-Oktabr)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqa boshlagan
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT

MUNDARIJA

		TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI
O. Ganiyev	4	Ta'lim tizimida korrupsiyaga qarshi immunitetni shakllantirish: jamoatchilik fikri asosida empirik tahlil
M. Pardayeva	13	Yangi o'quv yilining dastlabki 30 kunida maktab boshqaruvi: strategik ustuvorliklar va boshqaruv amaliyotining diagnostik tahlili
A. Xolmurodov	22	Pedagog kadrlar bilan ta'minlash va ularning kasbiy rivojlanish tizimini takomillashtirish: muammolar, huquqiy asoslar va istiqboldagi yo'nalishlar (Maktabgacha va maktab ta'limi tizimi misolida)
X. Nurmetov	26	Ta'lim tizimini raqamlashtirish sharoitida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik asoslari
U. Xasanov	30	Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak pedagoglarning raqamli madaniyatini rivojlantirish asosida kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish
U. Toxirov	33	Bo'lajak mutaxassislarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda "PBL" va "Sun'iy intellekt" vositalarini birgalikda qo'llashning pedagogik muammolari va ularning yechimlari
D. Kamoljonova	38	Mutolaa sotsiometrik munosabatlarni shakllantiruvchi madaniy vosita sifatida
B. A'zamov	42	Multimedia texnologiyalari orqali talabalarda raqamli kompetentlikni rivojlantirish
R. Quziyev	46	O'smir yoshdagi o'quvchilarni ijtimoiylashtirish jarayonida axborotlar bilan ishlash madaniyatini shakllantirishning tarbiyaviy ahamiyati
D. Mo'ydinova	50	Talabalarda shaxsiy e'tiqodini shakllantirish texnologiyasi
		TA'LIM VA TARBIYA METODIKASI
Z. Taxirov	53	Uslubiyatning fonetik vositalari
D. Il'yasova	58	Bolalar adabiyoti vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining estetik didini shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik ahamiyati
N. Kamolova	61	Kimyo ta'limida o'quvchilarning ilmiy tafakkurini rivojlantirishning o'ziga xos jihatlari
M. Kenjayeva	70	Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish bosqichlari
D. Sadikov	74	Organik kimyo darslarida laboratoriya mashg'ulotlarini raqamli texnologiyalar asosida tashkil etishning zamonaviy yondashuvlari
		ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI
M. Sayidova	79	Ta'lim muassasalarida zamonaviy texnologik ta'lim mazmunida ilg'or texnologiyalarning aks etishi
J. Buriyev	83	Raqamli ta'lim muhitida talabalarning mustaqil ta'lim faoliyatini rivojlantirish
U. Toxirov	86	Oliy ta'lim jarayonida muammoli ta'lim (pbl) texnologiyasi bilan sun'iy intellekt vositalarini integratsiyalashning pedagogik salohiyati

N. Temirov, X. Sirojiddinova	91	O‘quv jarayonini rivojlantirishda sun’iy intellektdan foydalanish
		TA’LIMDA MENEJMET
Q. Almardanov	94	Maktab rahbarlarining boshqaruv kompetensiyasini takomillashtirish orqali ta’lim sifatini oshirish jarayonlarini optimallashtirish
		TA’LIMDA IQTISODIOT VA MOLIYALASHTIRISH
N. Boymuradov	103	Maktabgacha ta’lim tashkilotida moliyaviy barqarorlikni ta’minlashda moliyaviy boshqaruv modeli
A. Boltaev	109	Tizimli yondashuv asosida maktabgacha ta’lim tashkilotlarida byudjetdan tashqari mablag‘larni jalb qilish va ularni samarali boshqarish
		MALAKA OSHIRISH VA QAYTA TAYYORLASH
N. Dushayeva	115	Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida pedagogik etikani shakillantirish vositalari va shartlari
		PSIXOLOGIYA
X. Toshturdieva	119	Umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilarini deontologik qobiliyatlarini shakllantirishning hozirgi holati
M. Muzaffarova	127	Raqamli jamiyat sharoitida boshlang‘ich maktab o‘quvchilarining raqamli sotsializatsiyasi va ota-onalik kompetentligining psixologik-pedagogik determinantlari
D. Adilova	131	Jamoadagi konfliktlarni boshqarish va ularni konstruktiv murosaga olib kelishning zamonaviy mexanizmlari
		ATROF-MUHIT MUHOFAZASI VA EKOLOGIK XAVFSIZLIK
D. Zayniddinova	135	Markaziy osiyoda suv resurslari muammosi va barqaror boshqaruv strategiyalari
		QIYOSIY PEDAGOGIKA
D. Xoliqulova	138	Mehrli maktab o‘quvchilarining ijtimoiy moslashuvchanlik ko‘nikmalarini rivojlantirishning xorijiy tajribasi

A’zam XOLMURODOV,
Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti bo‘lim boshlig‘i,
pedagogika fanlari doktori, dotsent

PEDAGOG KADRLAR BILAN TA’MINLASH VA ULARNING KASBIY RIVOJLANISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH: MUAMMOLAR, HUQUQIY ASOSLAR VA ISTIQBOLDAGI YO‘NALISHLAR

(Maktabgacha va maktab ta’limi tizimi misolida)

Annotatsiya

Maqolada maktabgacha va maktab ta’limi tizimini malakali pedagog kadrlar bilan ta’minlash hamda ularning uzluksiz kasbiy rivojlanishini takomillashtirishning dolzarb masalalari tahlil qilingan. Pedagog kadrlar siyosatidagi mavjud muammolar va ularni bartaraf etishning ustuvor yo‘nalishlari yoritilgan. Shuningdek, pedagoglarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish, mehnat samaradorligini natijaga asoslangan baholash hamda ta’lim muassasalarida zamonaviy kadrlar boshqaruvini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Tayanch so‘zlar. Pedagog kadrlar, maktabgacha ta’lim, maktab ta’limi, uzluksiz kasbiy rivojlanish, raqamli kompetensiya, ta’lim boshqaruvi.

В данной статье проанализированы актуальные вопросы обеспечения системы дошкольного и школьного образования квалифицированными педагогическими кадрами, а также совершенствования их непрерывного профессионального развития. Освещены существующие проблемы кадровой политики в сфере образования и приоритетные направления их решения. Кроме того, разработаны научно-практические предложения по развитию цифровых компетенций педагогов, оценке эффективности их труда на основе результатов деятельности, а также совершенствованию современных механизмов управления кадровыми ресурсами в образовательных учреждениях.

Ключевые слова. Педагогические кадры, дошкольное образование, школьное образование, непрерывное профессиональное развитие, цифровая компетентность, управление образованием.

This article analyzes the current issues of providing the preschool and school education system with qualified teaching staff, as well as improving their continuous professional development. The existing problems of personnel policy in the field of education and the priority directions of their solution are highlighted. In addition, scientific and practical proposals have been developed for the development of teachers’ digital competencies, evaluating the effectiveness of their work based on performance, as well as improving modern mechanisms for managing human resources in educational institutions.

Key words. Teaching personnel, preschool education, school education, continuous professional development, digital competence, education management.

Jahon tajribasi mamlakatning iqtisodiy taraqqiyoti, ijtimoiy barqarorligi va xalqaro raqobatbardoshligi, eng avvalo, inson kapitali sifati bilan uzviy bog‘liq ekanini ko‘rsatmoqda. Inson kapitalini shakllantirish va rivojlantirishda esa ta’lim tizimi hal qiluvchi o‘rin tutadi. Ta’lim tizimining samaradorligi ko‘p jihatdan pedagog kadrlarning kasbiy mahorati, kompetensiyasi, innovatsion faolligi hamda zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan samarali foydalana olish darajasi bilan belgilanadi.

Bugungi kunda ta’lim muhiti pedagogdan nafaqat o‘z mutaxassisligi bo‘yicha puxta

bilimga ega bo‘lishni, balki raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish, innovatsion pedagogik yondashuvlarni amaliyotga tatbiq etish, o‘quvchilarning mustaqil, tanqidiy va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan zamonaviy kompetensiyalarga ham ega bo‘lishni talab qilmoqda. Shu bois pedagog kadrlarni tayyorlash, ularni ish bilan ta’minlash, kasbiy qo‘llab-quvvatlash hamda uzluksiz rivojlantirish har qanday davlat ta’lim siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

So‘nggi yillarda respublikamizda ta’lim sohasini isloh qilish, boshqaruv tizimini takomillashtirish, pedagoglarning ijtimoiy maqomi va mehnatini munosib rag‘batlantirish, shuningdek, ularning kasbiy rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, pedagog kadrlarni tayyorlash va uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirishga doir huquqiy asoslar bosqichma-bosqich mustahkamlanib, sohaga zamonaviy boshqaruv mexanizmlari joriy etilmoqda.

Ayni paytda maktabgacha va maktab ta’limi tizimida pedagog kadrlar bilan ta’minlash, ularni hududlar kesimida mutanosib taqsimlash, yosh mutaxassislarni ta’lim tizimida saqlab qolish, raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish hamda pedagoglar mehnati samaradorligini baholash mexanizmlarini yanada takomillashtirishni taqozo etadigan qator dolzarb masalalar saqlanib qolmoqda.

Avvalo, ayrim hududlarda, ayniqsa, chekka va olis tumanlarda malakali pedagog kadrlarga bo‘lgan ehtiyoj hanuz yuqori darajada saqlanib qolmoqda. Xususan, matematika, fizika, kimyo, informatika hamda xorijiy tillar kabi fanlar bo‘yicha yuqori malakali mutaxassislarni jalb qilish va ularning ushbu hududlarda uzoq muddat samarali mehnat faoliyatini davom ettirishini ta’minlash dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Bundan kelib chiqib, pedagog kadrlarni hududlar bo‘yicha taqsimlashda ham muayyan nomutanosibliklar kuzatilmoqda. Poytaxtda va viloyat markazlarida malakali kadrlar nisbatan yetarli bo‘lgan holda, qishloq joylarda ularning yetishmasligi saqlanib qolmoqda. Bu holat yashash va mehnat sharoitlari, kasbiy o‘sish imkoniyatlari hamda ijtimoiy rag‘batlantirish mexanizmlarining samaradorligi bilan bevosita bog‘liq.

Muhim muammolardan yana biri yosh pedagoglarni ta’lim tizimida saqlab qolish masalasidir. Ayrim yosh mutaxassislar mehnat faoliyatining dastlabki bosqichida turli obyektiv va subyektiv omillar ta’sirida ta’lim muassasalarini tark etmoqda. Bu esa istiqbolda yuqori malakali pedagog kadrlar zaxirasini shakllantirish jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Sohadagi barcha pedagoglar ham elektron ta’lim resurslarini yaratish, raqamli platformalar orqali ta’limni tashkil etish hamda sun’iy intellekt texnologiyalaridan o‘quv jarayonida maqsadli foydalanish bo‘yicha yetarli amaliy ko‘nikmalarga ega emas. Zamonaviy ta’lim muhiti esa pedagoglardan yuqori darajadagi raqamli kompetensiyalarni talab qilmoqda.

Pedagoglarning malaka oshirish dasturlarini ham pedagoglarning individual ehtiyojlari, amaliy faoliyati va ta’lim sohasidagi zamonaviy tendensiyalardan kelib chiqqan holda tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, nazariy bilimlarni mustahkamlash bilan cheklanib qolmasdan, amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan o‘quv dasturlari ulushini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, ta’lim muassasalari rahbarlarining inson resurslarini boshqarish sohasidagi kompetensiyalarini rivojlantirish ham dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Zamonaviy rahbar pedagoglar faoliyatini samarali muvofiqlashtirish, ularning kasbiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash, innovatsion muhitni shakllantirish hamda natijaga

yo‘naltirilgan boshqaruvni amalga oshirish bo‘yicha yetarli boshqaruv ko‘nikmalariga ega bo‘lishi lozim.

Shuningdek, pedagoglar mehnati samaradorligini baholash tizimi ham zamonaviy talablar asosida takomillashtirilishi zarur. Baholash jarayoni pedagogning haqiqiy kasbiy natijalari, o‘quvchilarning ta’lim yutuqlari, metodik faolligi, innovatsion tashabbuslari va kasbiy rivojlanish ko‘rsatkichlariga tayangan holda tashkil etilishi maqsadga muvofiq. Bunday yondashuv bir tomondan pedagoglar mehnati samaradorligini oshirishga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan ularning kasbiy o‘sishini rag‘batlantirish uchun ham muhim omil bo‘ladi.

Umuman olganda, pedagog kadrlar bilan ta’minlash, ularning kasbiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash va mehnat samaradorligini oshirish bilan bog‘liq muammolar o‘zaro uzviy bog‘liqdir. Ularni samarali hal etish kompleks yondashuvni, zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini hamda huquqiy asoslarni yanada takomillashtirish talab qilinadi.

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim sohasini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilgan. Shu bois keyingi yillarda sohada amalga oshirilayotgan islohotlar mustahkam huquqiy asoslar negizida izchil amalga oshirilmoqda. Qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar pedagog kadrlarni tayyorlash, ularning kasbiy rivojlanishini ta’minlash, mehnatini munosib rag‘batlantirish hamda ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiluvchi yaxlit huquqiy mexanizmni shakllantirishga zamin yaratdi.

Huquqiy bazani takomillashtirishning muhim yo‘nalishlaridan biri pedagoglar mehnatini baholash va rag‘batlantirish tizimini rivojlantirish bilan bog‘liq. So‘nggi yillarda pedagoglarni attestatsiyadan o‘tkazish, ularning kasbiy kompetensiyalarini baholash hamda yuqori natijalarga erishgan pedagoglarni moddiy va ma’naviy jihatdan qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan mexanizmlar bosqichma-bosqich takomillashtirilmoqda. Bu esa ta’lim muassasalarida sog‘lom raqobat muhitini shakllantirish, pedagoglarning kasbiy faolligini oshirish va ta’lim sifatini yuksaltirishga xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga normativ-huquqiy hujjatlarning amaliy samaradorligi ularning ta’lim muassasalari faoliyatiga qay darajada to‘liq va sifatli tatbiq etilishi bilan belgilanadi. Shu nuqtai nazardan pedagoglar hamda ta’lim muassasalari rahbarlarining huquqiy madaniyatini yuksaltirish, qonunchilik hujjatlarining mazmun-mohiyatini amaliyotda to‘g‘ri qo‘llash va ularning ijrosi ustidan ta’sirchan monitoring mexanizmlarini yo‘lga qo‘yish muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, mamlakatimizda shakllangan huquqiy baza maktabgacha va maktab ta’limi tizimini malakali pedagog kadrlar bilan ta’minlash hamda ularning kasbiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash uchun mustahkam huquqiy asosni yaratmoqda. Endigi asosiy vazifa ushbu huquqiy mexanizmlarning amaliy samaradorligini yanada oshirish, ularni xalqaro ilg‘or tajribalar bilan uyg‘unlashtirish va ta’lim tizimida natijaga yo‘naltirilgan boshqaruv modelini izchil rivojlantirishdan iborat.

Shu bilan birga pedagog kadrlarga bo‘lgan ehtiyojni hududlar kesimida aniq prognoz qilish, chekka hududlarga malakali mutaxassislarni jalb etish, yosh pedagoglarni ta’lim tizimida saqlab qolish, raqamli kompetensiyalarni izchil rivojlantirish hamda pedagoglar mehnatini natijaga asoslangan mezonlar bo‘yicha baholash kabi masalalarni bosqichma-bosqich bartaraf etish hamda pedagog kadrlar siyosati samaradorligini yanada oshirish maqsadida quyidagi ilmiy-amaliy takliflarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

Pedagog kadrlarga bo‘lgan ehtiyojni prognoz qilishning raqamli modelini joriy etish hamda demografik o‘zgarishlar, o‘quvchilar kontingenti va hududlarning ijtimoiy-iqti-

sodiy rivojlanish tendensiyalarini inobatga olgan holda kadrlar balansini shakllantirish.

Chekka hududlarda mehnat qilayotgan pedagoglarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini yanada kuchaytirish, jumladan, ijtimoiy paketlar, xizmat uylari, ipoteka dasturlari, qo‘shimcha ustama to‘lovlar va kasbiy o‘sish imkoniyatlarini kengaytirish.

Pedagoglarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirishning milliy modelini ishlab chiqish hamda ularni sun’iy intellekt texnologiyalari, raqamli ta’lim platformalari, ta’lim analitikasi va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish bo‘yicha tizimli o‘qitish.

Pedagoglar mehnatini baholash tizimini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish, bunda baholashning asosiy mezonlari sifatida ta’lim natijalari, innovatsion faoliyat, metodik ishlar, kasbiy rivojlanish hamda o‘quvchilarning ta’lim yutuqlarini belgilash.

Ta’lim muassasalari rahbarlarining inson resurslarini boshqarish sohasidagi kompetensiyalarini rivojlantirish, strategik menejment, liderlik, raqamli boshqaruv va ta’lim sifatini monitoring qilish bo‘yicha maqsadli o‘quv dasturlarini kengaytirish.

Xulosa qilib aytganda, pedagog kadrlarni tayyorlash, ularning kasbiy rivojlanishini ta’minlash va samarali kadrlar siyosatini amalga oshirish mamlakatning intellektual salohiyatini yuksaltirish hamda inson kapitalini rivojlantirishning muhim sharti hisoblanadi. Mazkur jarayonni zamonaviy boshqaruv texnologiyalari, raqamli yechimlar va natijaga yo‘naltirilgan baholash mexanizmlari asosida takomillashtirish maktabgacha va maktab ta’limi tizimida ta’lim sifatini yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi Farmoni. – Toshkent, 2020.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha va maktab ta’limi sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-98-sonli Farmoni. 2024-yil 2-iyul.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-231–sonli qarori. 2024-yil 21-iyun.

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha va maktab ta’limi xodimlarining uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 867-sonli qarori. 2024-yil 20-dekabr.

5. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining sohaga oid me’yoriy hujjatlari.

6. Pardayeva M. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida kompetensiyaviy yondashuvni joriy etishning metodik tizimini boshqarish (informatika va axborot texnologiyalari fani misolida). Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD). Dissertatsiya avtoreferati. Toshkent. 2020.

7. Qudratov T. Maktabgacha ta’limda pedagogik kadrlar tayyorlashning yangi usullari. – Toshkent, 2021.

Bosh muharrir:
Mahmudov Sarvar Yuldashevich

Bosh muharrir o‘rinbosari v.v.b.;
Mas’ul kotib:
Suyarova Lutfiya Muxiddinovna

TAHRIR HAY’ATI:
Xilola UMAROVA, E’zozxon KARIMOVA, Risboy JO‘RAYEV, Xolboy IBRAGIMOV, G‘ayrat SHOUMAROV, Ulug‘bek INOYATOV, Oynisa MUSURMONOVA, Shukurullo MARDONOV, Saidaxbor BULATOV, Barno ABDULLAYEVA, Dilyara SHARIPOVA, Lola MO‘MINOVA, Maqsudjon YULDASHEV, Nilufar ISAQULOVA, Mirodiljon BARATOV, Muhabbat MIRSALIYEVA, Bahodir MA’MUROV, Zair TAXIROV, Sharibboy ERGASHEV, Shaxnoza XALILOVA

Tahririyat manzili:

Toshkent shahar Shayhontoxur tumani Navoiy ko‘chasi, 30-uy.
E-mail: xalq_talimi@xtv.uz Tel: (90)994-77-88, (93)528-90-47, (97)776-33-70
t.me/xalqtalimi_jurnali. http://t.me/xalq_talimi_jurnali.

Jurnalga yuborilgan maqolalarga javob qaytarilmaydi, jurnalda e’lon qilingan maqolalardan olingan matnlar ‘‘Xalq ta’limi’’ ilmiy-metodik jurnalidan olindi, deb ko‘rsatilishi shart.

Jurnal 2015-yil 20-martdagi 214/2-sonli qarori bilan OAK ilmiy nashrlari ro‘yxatiga kiritilgan.

“TAFAKKUR NASHRIYOTI” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shahri, Shayhontoxur tumani, Navoiy ko‘chasi, 30-uy

Bosishga ruxsat etildi: __.__.____-y. Qog‘oz bichimi 70x100 1/16. Ofset bosma usuli.
Shartli b.t. 12,0. Adadi __ ___ nusxa. – buyurtma.
Bahosi kelishilgan narxda.

Ushbu songa mas’ul – Muhammad Xurshida Tolibovna

Jurnalga taqdim etilgan barcha materiallar https://rustxt.ru/antiplagiat sayti hamda https://t.me/check_antiplagiat_bot da monitoring qilinadi.

© “Xalq ta’limi” jurnali, 2026.